Pedagogik amaliyotning bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash tizimidagi o'rni .....	632
<i>Aliyeva Mavjudaxon Baxromjon qizi</i>	
O'zbek tili darslarida media matnlardan foydalanish usullari.....	637
<i>Allakhova Bagdagul Djoldasbayevna</i>	
Media axborot vositalarining bolalar va o'smir yoshlarga ta'siri.....	640
<i>Arobova Shohsanam Akram qizi</i>	
Biologiya ta'limida tizimli-faoliyatli yondashuvning nazariy-metodologik asoslari.....	645
<i>Asrorova Odinaoy Otabek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi dizartirik bolalarning so'z boyligini rivojlantirish yo'llari .....	650
<i>Azizova Nilyufar Mirziyadovna</i>	
Ijtimoiy pedagog faoliyatida innovatsion yondashuvlar .....	656
<i>Bahriddinova Gavhar Oydinovna</i>	
Ta'lim tizimida deontologik yondashuvlarning pedagogik imoniyatlari.....	659
<i>Boboxujayev Johonmirzo Umar o'g'li</i>	
Zamonaviy ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan inklyuziv yondashuv.....	662
<i>Djurayeva Hurshida</i>	
Libos va aksessuarlar orqali milliy estetik didni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari .....	666
<i>Doniyorova Shahnoza Erkin qizi</i>	

Mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish bosqichlari mazmuni .....	672
<b>Dosbayeva Shahnoza Abdurahimovna</b>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tili o'rgatishning pedagogik-psixologik asoslari.....	675
<b>Ergasheva Xilola Yunusxonovna</b>	
Use of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language for Uzbekistan General Schools.....	679
<b>Feruz Zokirova Adham qizi</b>	
Efferent motor afaziya va uni bartaraf etish yo'llari.....	682
<b>G'anieva Gulrux Tavakkaljon qizi</b>	
O'quvchilarda ekologik kompetensiyani shakllantirish: biologiya darslarida global ekologik muammolar tahlili.....	686
<b>Ibragimova Sitora Akmal qizi</b>	
Ba'zi 3D-metallarining 2-amino-5-allitio-1,3,4-tiadiazol bilan kompleks birikmalarini o'rganish .....	690
<b>Jumaniyazova Gulxumar Karimbayevna</b>	
Tizimli bilish kompetentligining mazmuni va uning maktabgacha ta'limdagi o'rni .....	696
<b>Mirazimova Muxabbat Normatovna</b>	
O'qituvchilik mahorati va axloqiy madaniyatning mushtarakligi.....	700
<b>Nabiyev Islom Karimovich</b>	
Qarshi shahrida turizm menejerlarining kasbiy malakasini uzluksiz takomillashtirishni ta'minlash .....	706
<b>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida moslashuvchan kompetensiyalarni shakllantirishning metodik asoslari....	710
<b>Nuriddinova Diyora Isaqali qizi</b>	
Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari.....	714
<b>Pardayev Asror Ikromovich</b>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi .....	718
<b>Qayumova Mahfuzaxon Alisher qizi</b>	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidlarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirish metodikasi (Temurbeklar maktablari misolida) .....	724
<b>Quldashv Murodjon G'aniyevich</b>	
Bugungi voleybolda to'p uzatish texnikasi va aniqligini 13–14 yoshdan boshlab aylanish harakatlari ta'sirida shakllantirish afzalligi .....	727
<b>Rejapov O'tkirbek G'ayratjon o'g'li</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bolalar o'yin folklorini o'rgatishda tolerantlikni rivojlantirishning metodik usullari va texnologiyalari.....	733
<b>Ro'ziboyeva Madina Salimovna</b>	
Pedagogik muloqot tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari .....	737
<b>Ro'zimatova Maxpuza</b>	
Intellektual qadriyatlarning talaba yoshlar aksiologik hayotiy pozitsiyasini shakllantirishdagi roli .....	743
<b>Rustam Latipov Mamadaliyevich</b>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda AI-platformalarni integratsiyalashning amaliy mexanizmlari .....	747
<b>Rustamov Kamoliddin Ziyodillo o'g'li</b>	
Maktab biologiya ta'limida individuallashtirish texnologiyasidan foydalanish metodikasi.....	754
<b>Savutova Malohat Erkinovna</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning turizm sohasiga bo'lgan munosabatini o'rganishning ijtimoiy-pedagogik metodikasi.....	760
<b>Shodiyorov Rustam Xasan o'g'li</b>	
Bo'lajak harbiy xizmatchilarda deontologik yondashuvlar asosida raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish.....	764
<b>Soyibnazarov Baxtiyor Abdunazar o'g'li</b>	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida umumiy yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotlar tizimini kasbiy faoliyatga yo'naltirishning dolzarb masalalari.....	770
<b>Sultanova N. B.</b>	
Ijtimoiy reabilitatsiyani amalga oshirishda tibbiy-psixokorreksion maslahat ishlar mazmuni.....	775
<b>Suvanqulova Shaxnoza Karimqulovna</b>	
Blokcheyn texnologiyasining ta'lim jarayonida qo'llanilishi va imkoniyatlari .....	780
<b>Suyumov Jo'rabek Yunusaliyevich</b>	



Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari .....	783
<b>Tojibayeva Nazokatxon</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'ri .....	787
<b>To'xtasinova Nigoraxon Azizxon qizi</b>	
Oliy o'quv yurtlarida analitik kimyo fanini o'qitishning samaradorlik ko'rsatkichlari .....	793
<b>Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi</b>	
Antroposentrik yondashuv asosida o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo'llari .....	796
<b>Xamidova Nigora Ibrohimovna</b>	
Обучение говорению на русском языке абитуриентов с помощью настольных игр .....	800
<b>Абдулахадова Шохид</b>	
Особенности педагогической деятельности и их виды .....	803
<b>Мавжудова Ш. С., Мирходжаева Д.</b>	
Развитие критического мышления младших школьников на уроках читательской грамотности.....	808
<b>Мухаммадиева Марифат Мурод кизи</b>	
Искусство подбора слов: стилистические и семантические возможности перифраз .....	811
<b>Юлдашева Дилноза Бекмуродовна</b>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda refleksiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari .....	815
<b>Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna</b>	
The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise.....	818
<b>Ikramova Aziza Aminovna</b>	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati.....	823
<b>Ma'murova Farangiz Ne'matovna</b>	
O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi .....	827
<b>Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi</b>	
Ko'zi oqib boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari .....	830
<b>Qarshiboyev Asliddin</b>	
Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari .....	834
<b>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</b>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari .....	839
<b>Xolmatov Pardaboy Qoraboevich</b>	
Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора .....	844
<b>Азмиева Э. Э.</b>	
Maktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati.....	851
<b>Xoldarova F. M.</b>	
Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari .....	854
<b>Gulyamova Nafisa Burikulovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli .....	858
<b>Rizayeva Xusniya Ubayevna</b>	
Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli .....	861
<b>Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna</b>	
Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida... ..	865
<b>Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna</b>	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida .....	868
<b>Boyqulov Azamat Maxram o'g'li</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari .....	871
<b>Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi</b>	
Oliy badiiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni .....	875
<b>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</b>	



# DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA O'QUVCHILARNI KASB- HUNARGA YO'LLASHNING TASHKILY-ILMIY ASOSLARI

Xolmatov Pardaboy Qoraboevich

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va  
texnologiyalar universiteti, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida  
professor v.b. pedagogika fanlari nomzodi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsdan tashqari jarayonlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirishga oid mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kasb-hunar, o'quvchi, qiziqish, qobiliyat, bilim, amaliy tatbiq.

**Abstract:** This article discusses the issue of improving the professional orientation of students in secondary schools.

**Key words:** profession, interests and inclinations, skills, knowledge, practical application.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается вопрос совершенствования профессиональной ориентации учащихся общеобразовательных школ.

**Ключевые слова:** профессия, интересы и склонности, умения, знания.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-241-son'li "Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida 2022–2023 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quv rejasiga kiritilgan fanlar doirasida mehnat bozorida mavjud bo'lgan turli kasblar haqida tushunchalar berish nazarda tutilgan. Ushbu qarorda kasb egalari mehnat faoliyati bilan tanishtirish maqsadida 5–7-sinf o'quvchilari uchun turli uchrashuvlar va sayyor darslar tashkil etish, 7–9-sinf o'quvchilarining kasbga moyilligini aniqlash bo'yicha tashxislar o'tkazib borish hamda natijalar asosida ishlab chiqarish korxonalari, hunarmandchilik markazlari va boshqa tashkilotlarga ekskursiyalar uyushtirish masalalari belgilangan.

Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat va o'sish nuqtalariga muvofiq, maktab o'quvchilari uchun ustuvor kasblarni aniqlash hamda 10–11-sinf o'quvchilarini ushbu kasblarga tayyorlash, shu jumladan kasb-hunarga o'qitish markazlari, mahalla aholisi uchun kasb-hunarga o'qitish maskanlari va qisqa muddatli kurslar tashkil etilgan ta'lim muassasalarida o'qitish choralari ko'rish belgilab berilgan. Bundan tashqari, 2022–2023 o'quv yilidan boshlab tasdiqlangan namunaviy loyihalar asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining texnologiya fani ustaxonalari hamda kasb-hunar amaliyoti xonalarini bosqichma-bosqich tashkil etish va jihozlash choralari ko'zda tutilgan. [4]

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining kasb tanlashga tayyorligini shakllantirish, ularni davr talabi nuqtayi nazaridan o'zini o'zi belgilash muammosining dolzarbligini tahlil qilish yosh avlodning o'zini o'zi belgilash jarayonida yuzaga keladigan muammolarni amaliy hal etishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatini pedagog E.M. Pavlyutenkov, maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishga tizimli yondashuvni V.F. Saxarov va N.K. Stepanenkov, o'quvchilarni kasblar dunyosida zarur bilimlar bilan, shuningdek ularning individual xususiyatlarini ob'ektiv baholash qobiliyati bilan jihozlaydigan kasb-hunarga

1 <https://test.lex.uz/docs/-6008665?ONDATE=01.01.2024&action=compare>

yo'naltirish tizimini M.I. Dyachenko, L.A. Kandybovich, Z.V. Sadretdinova, S.N. Chistyakova va B.A. Fedorishin, kasb tanlashda individual yordam ko'rsatish maqsadida maktab o'quvchilarining shaxsini o'rganishning diagnostika usullarini N.P. Voronin, Yu.M. Zabrodin va V.D. Shadrikov, yoshlarga professional maslahat berishning nazariy va uslubiy asoslarini hamda professional kartalar bankini E.A. Klimov va N.S. Pryajnikov, yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash jarayonida ma'naviy madaniyat elementlarini shakllantirish masalalarini G.P. Shevchenko va V.V. Ryjov o'z ilmiy tadqiqotlarida yoritganlar.

Tadqiqot muammosi sohasida respublikamiz olimlaridan N. Shodiev, A. Xodjaboev, V.E. Alekseev, A.I. Vorobei, O. Abduqunduzov, I.I. Karimov, E. Choriev, K. Davlatov, P.T. Magzumov, Z. Ochilov, Sh. Sharipov, Q. Abdullaeva, R. Mavlonova, N. Muslimov, O. Magdiev, P. Xolmatov, A. Kuchukboev va S. Umarovlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, N. Shodiev, I. Karimov, O. Magdiev, P. Xolmatov, S. Umarov va X. Muranovlar kasb-hunar egallashning ahamiyati hamda kasb-hunarga yo'naltirishning turli omillari haqida o'z ilmiy tadqiqotlarida fikr yuritganlar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI


Maktab o'quvchilarining darsdan tashqari mashg'ulotlarga qatnashish davri ularning umumiy o'rta ta'lim muassasidagi butun ta'lim bosqichini qamrab oladi. Bu jarayon o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning tashkiliy va ilmiy asosida mutanosib ravishda amalga oshiriladi. Tadqiqot tajriba-sinov maydonlarida o'quvchilar uchun "Zamonaviy kasblar", "Tikuvchilik", "Robototexnika", "Kelajak kasblari" kabi to'garaklar tashkil etilib, ular maxsus ishlab chiqilgan ish rejalari va dasturlar asosida olib borildi. Har bir to'garak mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar umumiy o'rta ta'lim dasturi bilan uzviy bog'liq holda kasbiy bilimlar asoslarini uzluksiz egallab bordilar. To'garaklar uchun ishlab chiqilgan dasturlarni amalga oshirish murakkab pedagogik, psixologik hamda tashkiliy jarayonlarni o'z ichiga olganligi sababli, o'quvchilar qabul qiladigan axborotlar oqimini tizimlashtirish maqsadida quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini zamonaviy axborot bilan ta'minlash tuzilmasi tahlil qilindi;
- o'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim dasturi asosida dars jarayonida tanishishi mumkin bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlar klassifikatsiyasi ishlab chiqildi;
- maktablarda dars jarayonida yetarli e'tibor berilmagan, ammo mahalliy-hududiy sharoitlarga ko'ra talab yuqori bo'lgan kasblar tasnifi tuzildi va ular haqidagi axborotlar jamlanib tizimlashtirildi;
- darsdan tashqari mashg'ulotlarda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etishda ishlab chiqilgan klassifikatsiyalar asos vazifasini o'tadi hamda o'quvchilarni mahalliy talablar asosida kasb-hunarga yo'llash samaradorligini ta'minladi.

Shuningdek, o'quvchini kasb tanlashga yo'llashda yo'nalishni ixtiyoriy tanlash imkonini beruvchi sharoit yaratish, uni erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning yechimini topish uchun kasb tanlashga yo'llash ishlari ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, milliy hamda mintaqaning demografik holati kabi omillarni hisobga olgan holda amalga oshirildi. Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkoniyatlarini baholay olish, qiziqishlariga mos kasblar haqida bilimga ega bo'lish, shuningdek, kasblarning istiqboli haqida ma'lumot to'plash ko'nikmalarini egallashi lozim. Shaxsda kasbga yo'naltirish maxsus amaliy faoliyat orqali shakllanadi. O'quvchining inson sifatida rivojlanish bosqichlari jarayonida shaxs va jamiyat yagona tizim sifatida qaraladi, bunda o'tish davrida bozor iqtisodiyoti munosabatlari talablari ham inobatga olinadi. Shaxs har tomonlama kamol topishi uchun aqliy, jismoniy, ma'naviy va ruhiy jihatdan tarbiyalangan bo'lishi zarur. Shu nuqtai nazardan, shaxsning shakllanishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.


## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda kasb tanlashga yo'llash ishlarida shaxs xususiyatlarini chuqur o'rganish asosida mashg'ulotlarni o'quvchilarning individual imkoniyatlariga mos tarzda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Individual yondashuv asosidagi ta'lim o'quvchining qiziqishi, ehtiyoji va xohishiga qarab, ma'lum bir kasb-hunar bo'yicha chuqur ma'lumot olish imkonini beradi. Bu esa o'quvchiga kelajakda tanlagan kasbi bo'yicha kasb-hunar texnikumlarida o'qishni davom ettirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. To'garak mashg'ulotlari o'quvchilarning qiziqish va xohishlariga ko'ra muayyan fan yoki predmet bo'yicha ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish hamda ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim shaklidir [5].



1-rasm: Amaliy tajriba mashg'ulotlarini tashkil qilish tuzilmasi

Amaliy-tajriba mashg'ulotlari maxsus jihozlangan xonalarda va alohida ajaratilgan tajriba maydonida olib borildi. Bunday ta'lim mashg'ulotlarini tashkil qilishda asosan darsdan tashqari ishlarning amaliy-tajriba mashg'ulotlari va ekskursiyalar shakllaridan foydalanildi.



2-rasm: Ekskursiyalarning yo'nalishlari va tarkibiy tuzilishi

Darsdan tashqari mashg'ulotlar shakllaridan biri hisoblangan ekskursiyalarni tashkil etishda biz ularning sinf-dars tizimi, shuningdek, amaliy mashg'ulotlardan tubdan farq qiluvchi quyidagi jihatlariga e'tibor qaratdik:

- a) o'tkaziladigan ekskursiyalarning barchasiga o'qituvchi rahbarlik qilsa-da, u ekskursiya ob'yektlarining barchasi bilan yaxshi tanish bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda ekskursiya uyushtirilayotgan korxonaga, muassasa yoki xo'jalikning mas'ul vakili mashg'ulot olib boradi;
- b) ekskursiya muddati turlicha bo'lib, ularni tashkil etishda mintaqaviy, mavsumiy hamda ekskursiya uyushtiriladigan ob'yekt xususiyatlaridan kelib chiqiladi. Jumladan, qishloq xo'jalik korxonasiga hosilni yig'ishtirish davrida, avtokorxonalariga esa texnik qarovlarni o'tkazish paytida ekskursiya uyushtirilishi eng yuqori unumdorlikka erishish imkonini beradi;
- d) o'qituvchi yoki ekskursiya uyushtirilgan ob'yekt vakili bo'lgan ekskursovodning rahbarlik uslubi va o'quvchilarning faoliyati turlicha bo'lishi mumkin.

Ekskursiya davomida bir o'rindan ikkinchi o'ringa ko'chib yuriladi. Shu bois, o'quvchilardan intizomga qat'iy rioya qilish talab etiladi. O'qituvchilar ob'yektni kuzatish jarayonida vaqti-vaqti bilan savollar berib, zarur ma'lumotlarni yozib boradilar. Ekskursiya yakunida o'qituvchi bugungi kuzatganlarini avval o'zlashtirilgan materiallar bilan bog'lab, suhbat o'tkazadi. Ekskursiya materiallari asosida bayon yoki insho yozdirish mumkin<sup>[5]</sup>. Ta'limning noan'anaviy shakli sifatida tashkil etiladigan bahs-munozara, "Zakovat", davra suhbat, amaliy konferensiya, "Bumerang", "Veer", "Venn diagrammasi", "Klaster", seminar va boshqalar kasb-hunarga yo'naltirish mavzusi doirasida tashkil etilib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini ilgari surish, uni asoslash hamda himoya qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday darslarning samarali bo'lishida maqsadning aniqligi hamda o'qituvchilarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'rgazma va "Mo'jizalar maydoni" shaklida o'tkaziladigan darslar bellashuv xususiyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni faollikka undaydi.

Kasb-hunarga yo'naltirishda mashg'ulotlarning muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlarning samaradorligiga ham bog'liqdir. Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish yo'llarini hamda o'quv materialini nazariy va amaliy yo'naltirish usullarini anglatadi. O'qitish metodlari mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday kechishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish hamda shu jarayonda o'quvchilar qanday ish-harakatlarni bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Metodlar bir nechta asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida kichik guruhlariga va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish jarayoni o'z ichiga axborotni uzatish, qabul qilish, anglash, o'quv axborotlarini esda saqlash hamda olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni oladi. Shu bois,

- birinchi guruh metodlariga so'z orqali axborotni uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari (og'zaki metodlar: tushuntirish, hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar);
- ikkinchi guruhiga o'quv axborotini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va boshqalar);
- uchinchi guruhiga esa o'quv axborotini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar: mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar) kiradi.

Ta'lim texnologiyasi talablari bo'yicha ta'lim jarayoni "ta'lim oluvchi – ta'lim jarayoni – ta'lim beruvchi" an'anasiga muvofiq olib boriladi. Mazkur an'anaga muvofiq, ta'lim beruvchi avvalgidek tayyor bilimlarni ta'lim oluvchiga yetkazib beruvchi shaxs sifatida emas, balki yo'naltiruvchi, boshqaruvchi, maslahat beruvchi va baholovchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Ammo ta'lim jarayoni avvalgidek ta'lim beruvchi hamda ta'lim oluvchi faoliyatlarining o'zaro aloqadorligi, bog'liqligi va "teskari ta'sir" xususiyatini saqlab qoladi. Murakkab vaziyatlarda o'zlashtirilishi jihatdan qiyin bo'lgan nazariy ma'lumotlarni ta'lim beruvchi tomonidan bayon etib berish maqsadga muvofiqdir.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kasbga yo'naltirish ishlari tizimli ravishda va izchil takomillashtirib borilgandagina o'quvchining kelajakda mukammal kasb egasi bo'lishiga erishiladi. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashning ishlab chiqilgan mashqlar, topshiriqlar hamda ularni amaliyotga tadbiiq etishning eng samarali yechimi sifatida kasb-hunarga yo'llash ishlarini tashkil etishda vositalar mazmunini tanlashning tashkiliy-pedagogik mezonlari ishlab chiqildi. Ushbu tushuncha tavsiya etilayotgan kasblarning turlari va nomlari bo'yicha real mavjud kasblarning miqdoriga nisbatan optimal muvozanatni saqlash, kasb tanlash ishida mahalliy, mintaqaviy va xalqaro ehtiyojlar asosida kasbga yo'naltirishning ustuvorligini ta'minlash, bo'lajak kasb turi bilan bog'liq faoli-



yatning mazmuni va tuzilmasini asoslash, o'quvchining o'zi yo'naltirilayotgan kasb obyektlarining xususiyatlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi kabi jihatlarni o'z ichiga oladi <sup>[5]</sup>.

Xulosalar asosida quyidagi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- zamonaviy talablar va fan-texnika taraqqiyoti natijasida paydo bo'layotgan yangi kasblarni inobatga olgan holda o'quvchilarning o'z kasbini ongli ravishda, to'g'ri tanlashi va shu asosda tegishli bilimlarni puxta egallashlariga erishish;
- dars mashg'ulotlari davomida o'quvchilarni kasb-hunarga ongli va asosli ravishda yo'naltirishning samarali tizimini yaratish hamda tavsiya etilgan mashqlarni shoshilmasdan, e'tibor bilan bajarish tavsiya etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 102 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-241-sonli "Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://test.lex.uz/uz/docs/-6008665?ON-DATE=01.01.2024&action=compare>
4. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2013. – 8 b.t.
5. Xolmatov P. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirish. Monografiya. – Chirchiq, 2024.
6. Sharipov Sh.S. Kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. Monografiya. – T.: Fan, 2005. – 136 b
7. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
8. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
9. [www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz)
10. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.